



Muyassarova Sevinch Faxriddin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyot ta'lim yo'nalishi 1-kurs 11-25-guruhi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi o'rni, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi beqiyos ahamiyati yoritiladi. Konstitutsiya davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini belgilab, fuqarolarga erkin, tinch va farovon hayot kechirish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratib berishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada asosiy qonunimizning demokratik qadriyatlarini mustahkamlash, adolat va tenglikni ta'minlash, jamiyat barqarorligini saqlashdagi vazifalari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, qonun, adolat, suverenitet, demokratiya, parlament, sud tizimi, yangi tahrir, modernizatsiya.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль Конституции Республики Узбекистан в жизни общества, её исключительная важность в обеспечении прав и свобод человека. Анализируется, что Конституция устанавливает основные принципы государственного управления и создаёт прочную правовую основу для свободной, мирной и благополучной жизни граждан. Также рассматриваются функции нашего Основного закона в укреплении демократических ценностей, обеспечении справедливости и равенства, поддержании социальной стабильности.

**Ключевые слова:** Конституция, право, правосудие, суверенитет, демократия, парламент, судебная система, новая редакция, модернизация

**Abstract:** This article highlights the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in public life and its invaluable significance in ensuring human rights and freedoms. It analyzes how the Constitution defines the fundamental principles of state governance and provides citizens with a solid legal foundation for living in peace, freedom, and prosperity. The article also discusses the tasks of our Basic Law in strengthening democratic values, ensuring justice and equality, and maintaining social stability.

**Keywords:** Constitution, law, justice, sovereignty, democracy, parliament, judicial system, new edition, modernization.

## KIRISH

Har bir davlatning mustahkam poydevori – uning Konstitutsiyasidir. Chunki Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki xalqning orzu-intilishlari, erkinlik va adolatga bo'lgan ishonchining ramzidir.

Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi ham ana shu yuksak maqsadlarni o'zida mujassam etadi. Unda inson qadri, fuqarolarning huquq va erkinligi eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Bugungi kunda jamiyatning taraqqiyoti, farovon hayot, tinchlik va barqarorlik aynan shu Asosiy qonunga amal qilish bilan chambarchas bog'liq.



Konstitutsiya – xalq va davlat o'rtasidagi mustahkam ko'prik, har bir fuqaroning haq-huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi asosiy tayanchdir. Shu bois uni chuqur anglash, unga sodiq bo'lish va hurmat qilish har birimizning burchimizdir.

Konstitutsiya har bir davlatning huquqiy poydevori, jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni hisoblanadi. Unda nafaqat davlat tuzilishi, balki insonning sha'ni, erkinligi va farovon hayotini ta'minlaydigan asosiy qoidalar mujassam. Konstitutsiya xalqning irodasi bilan qabul qilinadi va shu bois u har bir fuqaroning eng katta kafolati sifatida xizmat qiladi.

Inson huquq va erkinliklari daxlsizligi, shaxsning erkin fikrlashi, bilim olishi, mehnat qilishi, oila qurishi kabi tabiiy huquqlar aynan Konstitutsiya orqali himoya qilinadi. Qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyatda adolat qaror topadi, adolat bor joyda esa ishonch va taraqqiyot yuzaga keladi. Shu bois Konstitutsiya davlatni boshqarish emas, avvalo, xalq manfaatini himoya qilishga qaratilgan oliy huquqiy hujjatdir.

Bugun farovon hayot qurish yo'lida fuqarolarning siyosiy faolligi, huquqiy savodxonligi va konstitutsion qadriyatlarga sodiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Har birimiz Konstitutsiyani chuqur anglasak, undagi normalarga amal qilsak, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik va ravnaq yanada mustahkamlanadi.

Shu ma'noda, Konstitutsiya — erkinlikning tayanchi, farovon kelajakning poydevori, xalqimizning porloq hayot sari ishonchli yo'ldoshidir.

Konstitutsiya (lotincha: constitutio — „o'rnatish“, „belgilash“) — bu davlatning asosiy bosh qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini, advokatura, prokuratura sohalaridagi bilimlarni belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya demokratik davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlar. Konstitutsiya o'zining 3 turdagi shakli mavjud, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament (<https://uz.wikipedia.org/wiki/Parlament>) tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharhlarni ham o'z ichiga olgan holda yoritiladi ya'ni qisman yozilgan bo'ladi. O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozining malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiyalash) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi.



Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o'rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an'analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan) jahon andozalariga mos bo'lib, xalqaro talablarga javob beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida Yangi tahrirdagi konstitutsiya qabul qilingan bo'lib bu o'zgarish 2023-yilning 30-aprelidagi referendumdan so'ng qabul qilindi (2023-yil 1-maydan kuchga kirgan). Konstitutsiyaning moddalariga katta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ya'ni 65% yangilandi. Yangi Advokatura bobi kiritildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqoti quyidagilarni alohida ta'kidlagan edilar: Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, "inson – jamiyat – davlat", degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz"<sup>15</sup>.

Yangi O'zbekistonning asosiy tamoyili va xalq bilan davlat o'rtasidagi yangi munosabatlar tizimi qanchalik mustahkam bo'lganini ko'rsatadi. Konstitutsiya – oddiy hujjat emas, balki xalqning irodasini aks ettiradigan bosh qonun.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Konstitutsiya loyihasining yaratilishidan tortib, uni qabul qilish jarayonigacha bo'lgan bosqichlarda millionlab fuqarolar faol ishtirok etdi. Bu esa:

- mamlakatda ochiq muloqot madaniyati shakllanganini,
- aholining o'z kelajagi uchun mas'uliyat sezayotganini,
- davlat boshqaruvida xalqning bevosita ovozi borligini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham "yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi" degan fikr – juda o'rinli. Bu hujjat yuqoridan emas, balki quyi bo'g'indan – xalq ichidan kelib chiqqan o'zgarishlar natijasi sifatida qabul qilindi.

Eng muhim jihat shundaki, Prezidentning "islohotlar yo'lidan ortga qaytmaymiz" degan so'zi – kelajak yo'limizning qat'iy belgilanganidan dalolatdir. Demak:

- davlat qurilishida inson manfaatlari birinchi o'ringa qo'yiladi;
- jamiyatning faolligi, fikri, tashabbusi yanada kuchayadi;
- barcha islohotlar "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida davom etadi.

Bu tizim – avval insonning huquqi, farovonligi va manfaatlari, keyin jamiyat taraqqiyoti, undan so'ng davlatning rivojlanishi degan zamonaviy va demokratik yondashuvdir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston oldinga intilayotgan, yangilanishdan to'xtamayotgan va o'z kelajagini xalq bilan birga qurayotgan davlat ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqoti. <https://president.uz/oz/lists/view/6275>



1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqoti. <https://president.uz/oz/lists/view/6275>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_Respublikasining\\_Konstitut](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasining_Konstitut_siyasi) siyasi